

Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi
**Diniy konfessiyalararo bag'rikenglik madaniyati va uni
shakllantiruvchi mezonlar**

Qirg'izaliyev Axadjon Abdulfatto o'g'li

Toshkent shahar yashnaobod tuman

77 – sonli “nurli mmaskan”

ixtisoslashtirilgan maktab-internati o'ituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada diniy konfessiyalar va ular faoliyatida uchraydigan bag'rikenglik, uni shakllantiruvchi omillar hamda mezonlar haqida fikr yuritilgan. Dinning jamiyat hayoti bilan aloqadorligi konfessiyalar misolida yoritilgan.

Kalit so'zlar: konfessiya, diniy bag'rikenglik, tolerantlik, e'tiqod, vijdon erkinligi, halollik, poklik, insonparvarlik.

Аннотация: В данной статье рассматривается толерантность религиозных конфессий и их деятельности, факторы и критерии, ее формирующие. Связь религии с жизнью общества иллюстрируется на примере конфессий.

Ключевые слова: исповедание, религиозная толерантность, толерантность, вера, свобода совести, честность, чистота, человечность.

Abstract: This article discusses the tolerance of religious confessions and their activities, the factors and criteria that shape it. The connection of religion with the life of society is illustrated by the example of confessions.

Key words: confession, religious tolerance, tolerance, faith, freedom of conscience, honesty, purity, humanity.

Ma'lumki, islom dini faqat aqidalar yig'indisidan iborat bo'libgina qolmay, balki ushbu dinga e'tiqod qiluvchi xalqlarning ijtimoiy, huquqiy, g'oyaviy, ma'naviy-axloqiy, ma'rifiy hayot tarzi haqidagi qonun-qoidalari, ko'rsatmalari, pand-nasihatlari majmuasidir. Shunday ekan, islom dini, uning qadriyatlari,

Qur'on, Hadis, ijmo va qiyos asosida ishlab chiqilgan shariat ahkomi asrlar davomida musulmon xalqlari, xususan o'zbek xalqi ijtimoiy-ma'naviy hayotida o'ta muhim o'rin egallab kelgan. Biz buni xalqimizning qon-qoniga singib ketgan diniy bag'rikenglik, xalqlararo totuvlik va hamjihatlik, diniy murosasizlik, do'stlik, o'zaro yordam kabi fazilatlarining namoyon bo'lishida ham kuzatishimiz mumkin.

Muhimi shundaki, islomiy qadriyatlarda axloqiy fazilatlarga da'vat faqat ushbu dinga e'tiqod qiluvchilarga nisbatan bo'lgan munosabatlardagina emas, balki boshqa dinlarga e'tiqod qiluvchi xalqlarga nisbatan bo'lgan munosabatlarda ham namoyon bo'lgan. Shuni alohida ta'kidlash joizki, musulmon xalqlari ijtimoiy, huquqiy, g'oyaviy, ma'naviy-axloqiy, ma'rifiy hayot tarzining asosiy manbai hisoblangan Qur'oni karimda insonlarning turli millatlarga va dinlarga mansubligi jihatidan bir-birlaridan farq qilishlari tabiiy ekanligi, lekin bu narsa ular o'rtasidagi adovat, nizo va urushlar uchun sabab bo'la olmasligini, zero Oллоh barcha insonlarni aziz-mukarram qilib yaratganligi, millatlar, xalqlar va dinlar o'rtasidagi tafovut ularning hamkorlik va hamjihatlikda yashashlariga xalaqat bermasligi, aksincha, ular o'zaro yordam, adolatparvar va do'st bo'lib yashash haqida ko'pgina oyatlar mavjud. Bu fikrimizning dalili sifatida Qur'ondan quyidagi oyatlarni keltirishimiz mumkin. «Ey imon keltirganlar! Sabr qilingiz, bag'rikeng bo'lingiz»[1.200], boshqa oyatda «(Avvalda) odamlar faqat bir millat (ya'ni bir dinda) bo'lgan edilar. So'ngra bo'linib ketdilar»[1.138]. Yana: «Agar Oллоh xohlaganda albatta ularni (ya'ni barcha insonlarni) bir millat (bir dinda Islomda) qilgan bo'lur edi»[1.352].

Qur'onda bag'rikenglikda yashash, boshqa xalqlar bilan ziddiyatga kelmaslik, adolat va birodarlar orasida tinchlik o'rnatish to'g'risida ham oyatlar keltirib o'tiladi. Jumladan: Hujurot surasining 11-oyatida «Ey, mo'minlar, (sizlardan) bir qavm (boshqa) bir (mo'min) qavmni masxara qilmasin! ...O'zlaringizni (bir-birlaringizni) mazax qilmanglar va bir-birlaringizni laqablar bilan atamanglar!» - deyiladi. Bu esa islom falsafasining muhim manbasi bo'lgan Qur'onda boshqa xalqlar, insonlar, millatlarni kamsitmaslik, aksincha ular

o'rtasida tinchlik-totuvlik g'oyalarning qanchalik targ'ib etilganligi, bag'rikenglik tamoyillariga asoslanganligining dalilidir.

Demak, insonlarning turli xalq va millatlarga bo'linishi, ularning turli dinlarga e'tiqod qilishlari, bir-birlaridan farqlanishida Oллоh hohish irodasining namoyon bo'lishini nazarda tutgan holda, boshqa dinga e'tiqod qiluvchilarga yoki boshqa xalq va millatlarga qandaydir g'ayriinsoniy, g'ayriaxloqiy bir mavjudodga bo'lgan munosabatdek bo'lish joiz emas. Hatto o'z birodariga ham salbiy munosabatda bo'lish g'ayriaxloqiy xisoblanadi. Shunday ekan, butun bashariyat, inson zotiga nisbatan bo'lgan hurmat-ehtirom ularga ham taalluqlidir.

Hadislar islom dini ta'limotida Muhammad (s.a.v.) hayoti, faoliyati hamda diniy, axloqiy ko'rsatmalarini o'z ichiga olgan bo'lib, musulmonlarning muqaddas kitobi «Qur'oni Karim»dan keyin turuvchi manba hisoblanadi. Shunday ekan, Hadislarda ham «Qur'on»dagi bag'rikenglikka oid oyatlar yanada to'ldiriladi, ularga keng izohlar berib o'tiladi, shuningdek, ko'plab nasihatlar, rivoyatlar keltiriladi. Chunonchi, hadislarda rivoyat qilinishicha sahobalar Payg'ambardan so'rabdilar: «Yo Rasululloh, kimni, qanday odamni musulmon deymiz?» Payg'ambarimiz aytdilar: «Birovga, (jonli va jonsiz bo'lsin) qo'li va tili bilan zarar yetkazmaydigan odamni musulmon deymiz». Yuqoridagi tahlillardan ma'lum bo'ladiki, islom aqidalarida bag'rikenglik masalasiga alohida e'tibor qaratilgan.

Hozirgi vaqtda dunyo miqyosida umuminsoniy manfaatlar va qadriyatlarning ahamiyati oshib borayotgan davrda yoshlarda diniy bag'rikenglik madaniyatini shakllantirish muhim ahamiyatga ega.

Plyuralistik madaniyatning muhim ajratib turuvchi xususiyati – bu qarashlar xilma-xilligining muqarrarliligi va zaruriyligi, demakki, o'zgacha fikrlashga bag'rikenglik tamoyili bilan qarash talabidir. Ijtimoiy va siyosiy nizolar ijtimoiy taraqqiyotga muqarrar yo'ldosh ekanligi tan olinadi, ularni barcha qatnashchi tomonlar manfaatlarini hisobga olish va kelishtirish yo'li orqali demokratik tarzda hal qilinishiga alohida urg'u beriladi. Shunday qilib, nizolarning paydo bo'lishi va hal qilinishiga to'g'ri munosabatda bo'linsa, ular ijtimoiy hayotning progressiv omiliga aylanadi.

Samarqand shahrida Sohibqiron Amir Temur davrida bunyod etilgan, Doniyor payg'ambar nomi bilan ataladigan maqbara islom, xristian va yahudiylik dini vakillari tomonidan birdek e'zozlanadi. El-yurtimiz necha asrlardan buyon bu qutlug' qadamjoni asrab-avaylab, obod qilib, unga hurmat-ehtirom ko'rsatib kelmoqda. Shu birgina misolning o'zi olijanoblik, ezgulik va tom ma'nodagi bag'rikenglik fazilati xalqimiz tabiati, mentaliteti asosini tashkil etishidan dalolat beradi[2].

Diniy bag'rikenglik madaniyati – shaxsning diniy qadriyatlarni hurmat qilishi, boshqa dinlar, urf-odatlar, diniy urf-odatlar, o'zga diniy qadriyatlar, e'tiqodlar va turmush tarziga nisbatan sabr-bardoshlik, chidamlilik, vijdon uyg'oqligi hamda ruhiy poklanishdir.

Ana shu ta'rifdan kelib chiqqan holda, yoshlarda diniy bag'rikenglik madaniyatini shakllantiruvchi **mezonlar** sifatida “Vijdon pokligi”, “Ruhiy poklik”, “Diniy qadriyatlarni hurmat qilish”, “Dinlararo bag'rikenglik”ni belgilab olamiz.

“**Vijdon pokligi**” tushunchasi vijdonlilik, hushyorlik va jonkuyarlik, adolatsizlik va nohaqlikka murosasiz bo'lish kabilarni o'z ichiga qamrab oladi. Chunki vijdon pokligi shaxsning o'zi yashab turgan yurtidagi turli din vakillarining huquq va burchlarini ongli ravishda hurmat qilishi; diniy dunyoqarashning jamiyat ma'naviy hayotida muhim o'rin tutishini anglab yetishi; turli diniy mazhab vakillarining xohish-irodasi, intilishi va qarashlariga hurmat bilan munosabatda bo'lishi; barcha din vakillarining “Haq”ga intilishlarini qadrlay bilishini taqozo etadi.

“**Ruhiy poklik**” tushunchasi ruhiy sobitlik va tetiklik, nafsni tiyish, niyatning xolisligi, hurfikrlilik va fikrning sofligi, amallarning ezguligi kabi fazilatlarni o'zida aks ettiradi. Ruhiy poklik shaxsdagi ruhiy jarayonlarning barqarorligi; ruhiyatning sog'lomligi, uning ma'nan boyib borishi; shaxsning xayrli ishlar haqidagi umid-o'ylari, xayollari; maqsad sari intilishi; ezgu maqsadlarni amalga oshirishga bo'lgan ishonchi; fikrlarning xolisligi; ezgu o'y, ezgu fikrlarga asoslangan holda harakat qilishi; xayrli ishlarni amalga oshirishga intilishini nazarda tutadi.

Yoshlarda tarkib toptirilishi lozim bo'lgan **diniy qadriyatlarga** insofilik va adolatlilik, halollik va poklik, insonparvarlik va bag'rikenglik, mehr-shafqatlilik va oqibatlilik, iymonlilik, mustahkam iroda va e'tiqodlilik kiradi. Mazkur qadriyatlarni shakllantirish asosida yoshlarda voqelikka ongli va mas'uliyatli munosabat yuzaga keladi.[3]

“Dinlararo bag'rikenglik” shaxsning barcha dinlarga hurmat bilan munosabatda bo'lishi, diniy va milliy mojarolarga murosasiz bo'lishi, turli diniy e'tiqodlarga nisbatan murosasozlikda bo'lishini talab etadi.

Diniy qadriyatlarni hurmat qilish:

1. Insofilik va adolatlilik – “insof” arab tilidan olingan bo'lib, har qanday hodisaga nisbatan ob'ektiv mavqedan qarash ma'nosini anglatadi. Insof insoniy fazilatlar orasida juda muhim va zarur hislatdir. Adolat insofga nisbatan yanada kengroq ma'noda tushuniladi. U har qanday holatda ham, moddiy yoki ma'naviy manfaatga qaramay biror tarafga og'maslik, haqiqat tomonida turishdir.

2. Halollik va poklik - islom dinida barcha qilinishi mumkin bo'lgan ishlarga halol deyiladi.

Halollik va poklik deganda insonlarning joni, moli, or-nomusi, izzat-nafsiga tajovuz qilmaslik tushuniladi. O'z mansabini suiiste'mol qilmay, ta'magirlik balosidan xoli bo'lib, halol kasb orqali ro'zg'or tebratish halollikning ko'rinishidir. Xalq orasida poklik gigienik nuqtai nazardan yaroqli, sof, toza buyumlarga nisbatan ham qo'llaniladi.

3. Insonparvarlik va bag'rikenglilik – inson Alloh yaratgan mavjudotlarning eng aziz va sharaflisidir. Odam farzandini irqi, dini, ijtimoiy-moddiy holatidan qat'iy nazar sevmok va unga nisbatan insoniy munosabatda bo'lmoq insonparvarlik tamoyilining asosini tashkil etadi. Bag'rikenglik insonparvarlik bilan bir qatorda o'zidan boshqalarning dunyoqarashlari, e'tiqodlari va muqaddas tuyg'ulariga nisbatan ehtirom bilan munosabatda bo'lishdir.

4. Mehr-shafqatlilik va oqibatlilik – mehr, shafqat tushunchalari, kishining o'zidan ko'ra zaifroq, kichik va yordamga muhtoj kimsalarga muruvvat ko'ratish demakdir. Oqibatlilik esa, o'ziga nisbatan mehr ko'rsatgan kimsalarga

qoʻlidan kelganicha yaxshilik qilish, qarindosh-urugʻlari, doʻst-qarddonlari va barcha yaqinlari bilan aloqani uzmaslikdir. Bu islom dini taʼlimotda “sila-i rahm” deb ham yuritiladi.

5. Iymonlilik - ushbu tushuncha turli maʼnolarda ishlatiladi. Jumladan:

a) islom diniga koʻra iymon shartlari sanalmish Allohga, uning farishtalariga, kitoblariga, Paygʻambarlariga, qiyomat kuniga, taqdirga va oʻlgandan soʻng qayta tirilishga chin qalbdan ishongan shaxsga nisbatan iymonli deb aytiladi;

b) hozirgi kunimizda bu ibora vijdonlilik, halollik, soflik, vatanni sevisish kabi maʼnolarga ham ega. Shuningdek, islom odobiga koʻra, tozalik va unga rioya etish iymondandir degan naql bor;

v) xalq orasida vijdon maʼnosida ham qoʻllaniladi.

6. Mustahkam iroda va eʼtiqodlilik – kishining oʻz oldiga qoʻygan maqsadi har qancha qiyin va mashaqqatli boʻlmasin, unga yetishish yoʻlida sabot va matonat koʻrsatishi iroda mustahkamligidan nishonadir. Mustahkam irodalilik kishini eng yuksak darajalarga yetishtiruvchi muhim omillardan, fazilatli hislatlardan sanaladi.

Mustahkam eʼtiqodlilik – kishi oʻzi toʻgʻri deb bilgan aqidada har qanday sharoitda ham mustahkam turishi, turli tajovuzlar oqibatida yoki moddiy va maʼnaviy manfaatlar evaziga undan voz kechmaslikdir. Eʼtiqodning asosi taraqqiyparvar, ezgulik va adolat manbai boʻlgan haq dinga yohud oʻzi haq deb bilgan taʼlimotga ergashishdir.

Dinlararo bagʻrikenglik madaniyatini belgilovchi mezon-fazilatlar:

jonkuyarlik, hushyorlik va vijdonlilik, tarixiy xotiraga masʼuliyat va hurmat, vijdon pokligi, ruhiy poklik (poklanish), dinlararo bagʻrikenglik, diniy qadriyatlarni hurmat qilish, insoflilik va adolatlilik, halollik va poklik, insonparvarlik va bagʻrikenglik, mehr-shafqatlilik va oqibatlilik, iymonlilik, mustahkam iroda va eʼtiqodlilik, ruhiy sobitlik va tetiklik, niyatning xolisligi, hurfikrlilik va fikrning sofligi, amallarning ezguligi, barcha dinlarga hurmat bilan munosabatda boʻlish, diniy va milliy mojarolarga murosasiz boʻlish, turli diniy

e'tiqodlarga nisbatan murosasozlik.[4]

Vijdonlilik – vijdon deb inson ruhiyatiga, fikriga ta'sir qiladigan hissiyot, ya'ni sezgi, tuyg'udan iborat ma'naviy quvvatga aytiladi.

Hushyorlik va jonkuyarlik – shaxsning jamiyatda va sodir bo'layotgan butun voqea-hodisalarga ongli munosabatda bo'lishi; turli diniy oqimlar ta'siriga tushib qolishdan ogoh bo'lishi; jamiyatda vijdon erkinligiga amal qilinishiga jonkuyarlik ko'rsatishi.

Tarixiy xotiraga mas'uliyat va hurmat hissi – shaxsning tarixiy taraqqiyot jarayonida shakllangan diniy qarashlar, an'analar, hurfikrlilikka mas'uliyatli munosabatda bo'lishi; yurtimizda mavjud bo'lgan barcha din va uning vakillariga hurmat bilan munosabatda bo'lishi.

Ruhiy sobitlik va tetiklik – shaxsdagi ruhiy jarayonlarning barqarorligi; tana va ruhning birligi; ruhiyatning sog'lomligi, ruhiyatning ma'nan boyib borishi.

Niyatning xolisligi – shaxsning xayrli ishlar haqidagi umid-o'ylari, xayollari; maqsad sari intilishi; ezgu maqsadlarni amalga oshishiga bo'lgan ishonchi.

Hurfikrlilik va fikrning softligi – shaxsdagi fikrlarning xolisligi; fikrlarining g'arazli unsurlardan xolisligi.

Amallarning ezguligi – shaxsning ezgu o'y, ezgu fikrlarga asoslangan holda harakat qilishi; xayrli ishlarni amalga oshirishga intilishi.

Yuksak ma'naviyatli shaxsning kamol topishida diniy bag'rikenglik (tolerantlik) madaniyatining o'rni va ahamiyati beqiyosdir. Albatta, diniy bag'rikenglik (tolerantlik) madaniyati inson umrining muayyan bir davrida emas, balki uning butun umri davomida shakllanib, takomil topib boradi.[5] Bunda dastlabki omil sifatida oila va maktabgacha ta'lim muassasasi namoyon bo'ladi. Tadqiqotlarga ko'ra, inson olamni his etishi uchun zarur bo'lgan asosiy bilimlarni ayni shu yoshlarda egallaydi. Demak, bu bosqich kelgusi avlod tarbiyasida o'z ahamiyati jihatidan o'ta muhim hisoblanadi.

Hozirgi vaqtda dunyo miqyosida umuminsoniy manfaatlar va qadriyatlarning ahamiyati oshib borayotgan davrda yoshlarda diniy bag'rikenglik

madaniyatini shakllantirish muhim ahamiyatga ega.

Diniy bag'rikenglik madaniyati – shaxsning diniy qadriyatlarni hurmat qilishi, boshqa dinlar, urf-odatlar, diniy urf-odatlar, o'zga diniy qadriyatlar, e'tiqodlar va turmush tarziga nisbatan sabr-bardoshlik, chidamlilik, vijdon pokligi hamda ruhiy poklanishdir.

Diniy bag'rikenglik (tolerantlik) madaniyatini belgilovchi mezonlar sifatida yoshlarga bolalikdan «o'zini erkin tutish», «ozodalik», «qizg'anmaslik», «yolg'on gapirmaslik», «ziyraklik», «o'z «Men»iga egalik», «o'zga millat vakillariga hurmat bilan munosabatda bo'lish», «barcha millat bolalari bilan do'stlashish», «odamlarga ishonch», «boshqalarning narsa-buyumlariga ko'z olaytirmaslik», «ota-onasi, qarindoshlari va o'rtoqlarini yaxshi ko'rish», «ota-onasi, qarindoshlari va o'rtoqlariga mehribonlik», «ishonuvchanlik», «chidamlilik» kabilarni singdirib borish zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Куръони Карим. Оли Имрон сураси. 200-оят. -Тошкент: Чўлпон, 1992. (Таржима ва изоҳлар муаллифи Алоуддин Мансур).
2. Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг "Ижтимоий барқарорликни таъминлаш, муқаддас динимизнинг софлигини асраш – давр талаби" мавзусидаги анжуманда сўзлаган нутқи.
3. Kurbanov, C. M., Shaniyazov, S. S., Nurfayziev, J. B., & Sherboboev, M. A. U. (2020). GEOPOLITICAL AND ECONOMIC INTERESTS OF THE RUSSIAN EMPIRE IN THE SECOND HALF OF THE 19th CENTURY IN CENTRAL ASIA. *PalArch's Journal of Archaeology of Egypt/Egyptology*, 17(7), 8521-8546.
4. Sherboboev, M. A. O. (2021). CRITICAL RATIONALISM AS A METHODOLOGICAL MEANS OF SCIENTIFIC KNOWLEDGE. *Academic research in educational sciences*, 2(8), 89-97.
5. Azimmurod o'g'li, S. M. (2023). KARL POPPERNING ILMIY BILISH MANTIG'I VA YANGI O'ZBEKISTONDA IJTIMOIIY BILISHNING O'ZIGA

Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi

XOSLIGI. Finland International Scientific Journal of Education, Social Science & Humanities, 11(2), 447-453.